

O‘ZBEKISTON VA YEVROPA ITTIFOQI O‘RTASIDA IMZOLANGAN TARIXIY BITIM KO‘P QIRRALI SHERIKLIKNI MISLI KO‘RILMAGAN DARAJAGA OLIB CHIQAADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayenning taklifiga binoan 23-24-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan Bryussel shahrida bo‘ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev Belgiyaga rasmiy tashrifi doirasida 24-oktabr kuni Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari rahbarlari bilan davra suhbatini o‘tkazdi. Uchrashuvda Yevropa Ittifoqining kengayish bo‘yicha komissari Marta Kos, “Vandewiele”, “Linde”, “Rhenus Logistics”, “Ahlers Logistics”, “Lasselsberger Group”, “Pietro Fiorentini”, “NextChem”, “Meridiam”, “SUEZ”, “FMO”, “European Investment Bank”, “Commerzbank”, “KfW”, “Textima”, “Chincomplex”, “Metso” hamda boshqa kompaniya va korporatsiyalarning rahbariyati ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari tadbirida Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishtirok etayotgani o‘zaro yuksak ishonch va uzoq muddatli sheriklikka intilishning ifodasi ekanini alohida ta’kidlaydi.

Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning imzolaniishi O‘zbekiston

va YI o‘rtasidagi munosabatlarda yangi davrni boshlab berishi qayd etildi.

Keyingi yetti yilda tovar ayirboshlash ikki barobar ko‘paydi, Yevropa sarmoyasi ishtirokidagi qo‘shma korxonalar soni mingdan oshdi. Bu ko‘rsatkichlar investorlarning O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yevropalik hamkorlar O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va tubdan isloh qilish, ilg‘or texnologiyalar, korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish hamda innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko‘maklashayotgani qayd etildi.

Prezidentimiz inson kapitalini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Yoshlarning oliy ta’lim olish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Yangi oliy o‘quv yurtlari tashkil etildi, xorijiy universitetlarning filiallari ochildi,

yevropalik hamkorlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari amalga oshirilmoqda.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari hamkorlikni yanada chuqurlashtirishning to‘rtta muhim yo‘nalishini ko‘rsatib o‘tdi.

O‘zbekiston strategik xomashyo va minerallarni o‘zlashtirish va chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalarni birgalikda amalga oshirishdan manfaatdor.

“Yashil iqtisodiyot” va kimyo sanoati ham hamkorlik uchun istiqbolli yo‘nalishlardir. Mamlakatimiz qayta tiklanadigan energetikani faol joriy etmoqda, energetika tizimini modernizatsiya qilmoqda. Yevropalik hamkorlarga “yashil” energetika, energiya tejash va ekologik kimyo loyihalarida ishtirok etish taklif qilindi.

Infrastruktur va logistikani rivojlantirish ham ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatib

o‘tildi. O‘zbekiston avtomobil va temir yo‘llari hamda aeroportlarni o‘z ichiga olgan transport tarmog‘ini modernizatsiya qilmoqda. Mamlakatimiz tranzit yo‘nalishlarini rivojlantirish, Yevropa va Osiyoni bog‘laydigan zamonaviy logistika markazlarini barpo etish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga tayyor.

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohasiga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston IT-parklar va startap inkubatorlarini rivojlantirmoqda hamda Yevropa kompaniyalari bilan sun‘iy intellekt va kibernetika sohalarda hamkorlik qilishga tayyor.

Davra suhbatini ishtirokchilari, o‘z navbatida, mamlakatimizda investitsiyalar uchun yaratilgan shaffof va barqaror sharoitlarni yuqori baholadilar hamda yurtimizda yangi qo‘shma loyiha va tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etishga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar.

Shuningdek, Bryussel shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni imzolashga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Hujjat 1996-yilgi Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimga asoslangan O‘zbekiston — Yevropa hamkorligining huquqiy bazasini yangilaydi hamda sezilarli darajada kengaytiradi.

Yangi Bitim loyihasi bo‘yicha muzokaralar 2019-yil fevral oyida boshlanib, 2022-yil iyul oyida yakunlangan. Hujjat 2022-yil 6-iyul kuni Bryussel shahrida parafirlangan edi.

Bitim 9 ta bo‘lim, 356 ta modda va 14 ta ilovadan iborat. U ikki tomonlama munosabatlarning deyarli barcha sohalarini qamrab oladi hamda siyosiy mulokatni mustahkamlash, savdo va investitsiyalar, barqaror rivojlanish, fan va ta’lim, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishiga alohida e’tibor qaratgan holda barcha o‘zaro manfaatli yo‘nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish uchun keng qamrovli huquqiy asosni shakllantiradi.

Bitimning imzolaniishi O‘zbekiston va YI munosabatlarda yangi bosqichni boshlab beradi hamda ko‘p qirrali sheriklikni misli ko‘rilmagan yuksak darajaga olib chiqadi.

Bryusseldagi Yevropa kengashi bosh qarorgohi — “Yevropa” binosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti yakunida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida ko‘p qirrali O‘zbekiston — Yevropa hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Yetakchilar bugun imzolangan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi tarixiy bitimni yuqori baholadilar. Ushbu keng qamrovli hujjat O‘zbekiston bilan YI hamkorligining nafaqat huquqiy asoslarini kengaytirishi, balki yangi kun tartibini shakllantirishi ta’kidlandi.

Shuningdek, Bitim birlashmaga a’zo davlatlar bilan, eng avvalo, savdo, investitsiyalar, transport, energetika, iqlim, yuqori texnologiyalar va madaniy-gumanitar hamkorlik sohalaridagi aloqalarga kuchli sur’at bag‘ishlaydi.

Tomonlar O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zoli bo‘yicha YI bilan ikki tomonlama muzokaralar yakunlanganini ham olqishladilar.

Barcha darajalarda faol, sarmashgul muloqot va almashinuvlar amalga oshirilayotgani katta mamnuniyat bilan ta’kidlandi. Tashrif arafasida O‘zbekiston delegatsiyasi Yevropa Ittifoqining “Global darvoza” ikkinchi forumida ishtirok etdi. Ya’qinda esa Hamkorlik kengashi hamda Iqtisodiyot, savdo va investitsiyalar bo‘yicha kichik qo‘mita yig‘inlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Kuni kecha yirik qo‘shma biznes forumi o‘tkazilgan bo‘lsa, bugun Yevropaning yetakchi kompaniyalari va moliyaviy tuzilmalari rahbarlari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Ular natijasida energetika, kimyo, muhim minerallar, logistika, to‘qimachilik va farmatsevtika tarmoqlarida umumiy qiymati 10 milliard yevrodan ziyod bo‘lgan yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. Bu Yevropa kompaniyalari ishtirokidagi umumiy qiymati 40 milliard yevrodan ziyod bo‘lgan hozirgi loyihalar portfeliga salmoqli qo‘shimchadir.

Sheriklikning yuqori sur’atini saqlab qolish uchun hamkorlikning institutsional mexanizmlarini yanada mustahkamlash, investitsiyalar, muhim minerallar, energetika, transport, fan va ta’lim sohalarida yangi istiqbolli

loyihalarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi. Ishbilarmonlik va gumanitar aloqalarni mustahkamlash uchun viza tartibotlarini soddalashtirish muhimligi qayd etildi.

Yetakchilar xalqaro kun tartibi va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar.

Uchrashuv yakunida Qo‘shma bayonot qabul qilindi.

Bryussel shahriga rasmiy tashrif doirasida Laken saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belgiyaliklari Qirolli Filipp bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Qirol Filipp O‘zbekiston yetakchisining YI rahbariyati bilan muzokaralarining yakunlarini yuksak baholab, mamlakatimiz yetakchisini Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi tarixiy bitim imzolangani bilan samimiy tabrikldi.

O‘zbekiston — Belgiya munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Vazirlar darajasida faol muloqotlar yo‘lga qo‘yilgan, siyosiy maslahatlashuvlar muntazam o‘tkazilmoqda, ikki mamlakat parlamentlarida do‘stlik guruhlari tashkil etilgan.

Madaniy-gumanitar hamkorlik mustahkamlanmoqda. Toshkent va Kortreyk, Samarqand va Lyej shaharlari o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatildi. Kortreykda buyuk alloma bobomiz Abu Ali ibn Sinoning byusti ochildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, Belgiya kompaniyalari O‘zbekistonda, xususan, to‘qimachilik, logistika va xizmat ko‘rsatish sohalarida muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. O‘tgan yili Toshkentda Benilyuks mamlakatlarining savdo palatasi ochildi.

Suhbat chog‘ida Belgiya kompaniyalari vakillarining O‘zbekistonga tashriflarini tashkil etish, shuningdek, madaniy tadbirlarni o‘zaro o‘tkazish muhimligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Qirol Filippni tashrif bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belgiyaga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli ichki ishlar tizimi xodimlari!
Qadrlı ofitser va generalar, serjant va safordlar!
Muhtaram faxriylar!
Siz, azizlarni 25-oktabr — O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kuni bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda, avvalo, Vatan oldidagi muqaddas qasamyodingizga doimo sodiq qolib, yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi yo‘lida o‘z zimmaningizdagi g‘oyat muhim vazifalarni yuksak mas’uliyat bilan ado etib kelayotganingizni alohida ta’kidlashni istardim.

So‘nggi yillarda ichki ishlar organlarini chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish borasida amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz natijasida mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik muhitini ishonchli ta’minlash bo‘yicha mustahkam zamin yaratildi.

2025-yilda “**Har bir mahallada huquq-buzarliklarning barvaqt oldini olish**” barcha darajadagi rahbarlar uchun eng ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu maqsadda jinoyatlar sodir etilishi nuqtayi nazaridan vaziyati og‘ir bo‘lgan mahallalarga ichki ishlar organlari bilan birgalikda barcha mutasaddi tashkilotlar rahbarlari hamda huquq-tartibot tizimidagi oliyog‘hlar biriktirilib, ularning joylardagi kundalik manzilli faoliyati va xavfsiz muhit yaratishga qaratilgan “yagona faoliyat janjiri” yaratildi.

Ushbu toifadagi mahallalar kichik hududlarga birlashtirilib, ularda “tezkor yordam” funksiyasini bajaradigan huquq-tartibot maskanlari tashkil etildi, migrantlar va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha alohida tashkiliy-profilaktik mexanizmlar shakllantirildi. Profilaktika, tezkor-qidiruv, patrol-post, yo‘l-patrol va qo‘riqlash xizmati inspektorlarining birgalikdagi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular “mahalla yetiligi” va aholi bilan yaqin hamkorlikda ish olib bormoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy dasturlar hamda huquqiy-tartibotni mustahkamlash borasidagi tadbirlar natijasida yil davomida jami mahallalarning

yarmidan ko‘pida jinoyat sodir etilmadi, yoshlar, ayollar va ishsizlar o‘rtasida jinoyatchilikning keskin kamayishiga erishildi.

O‘z navbatida, sohada zamon talablariga mos ravishda samaradorlikka erishishga qaratilgan yangicha ishlash amaliyoti qaror topmoqda. Xususan, ichki ishlar organlarining **raqamli infratrutzilmasida** transformatsiya jarayonlari boshlandi, jamoat xavfsizligini ta’minlash amaliyotiga **sun‘iy intellekt** imkoniyatlari keng tatbiq etilmoqda.

Qisqa muddatda vazirlik va idoralarning qirg‘qa yaqin ma’lumotlar bazasi bilan integratsiyalashgan “Xavfsiz shahar” yagona platformasi yaratildi, 20 dan ortiq yangi axborot tizimlari ishga tushirildi, “Yagona migrant” axborot bazasi yordamida uzoq vaqt xorijda yurgan shaxslar bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Dunyo miqyosida tobora kuchayib borayotgan **kiberjinoyatlar**ning tahdid va ta’siridan mamlakatimizni ishonchli himoya qilish, ayniqsa, aholimizning ulardan jabrlanishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha kompleks mexanizmlar joriy etilmoqda. Tabiiyki, bu sohada zamonaviy professional kadrlarga bo‘lgan talabni oshirmoqda.

Shu jihatdan 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida dual ta’lim jarayoni va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida “Raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlariga qarshi kurashish faoliyati” yo‘nalishida malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yilgani muhim qadam bo‘ldi.

Hurmatli soha xodimlari!
Jinoyatlarning barvaqt oldini olish, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish orqali xalqimiz hayotini yanada osoyishta va fayzli qilishga qaratilgan harakatlarimizni biz bundan buyon ham **ustuvor darajada izchillik bilan davom ettiramiz**. Bunda “mahalla yetiligi” imkoniyatlaridan samarali foydalanish, oila, ta’lim muassasasi, mahalla faollari va davlat idoralari o‘rtasida uzviy hamkorlikni ta’minlashga alohida e’tibor berish lozim.

Biz zamon talablarini hisobga olib, ichki ishlar organlarida jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonini raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini keng joriy etgan holda tashkil etish, kiberfiribgarlik va kibero‘g‘riliklarga chek qo‘yish bo‘yicha ishlarni yangicha yondashuvlar asosida faollashtiramiz.

Bütün jahonda g‘oyahvandlik balosi asosan voyaga yetmaganlar va yoshlarni o‘z domiga tortayotgani hammamizni ogohlilikka undashi zarur. Ushbu illatdan **milliy genofondimizni asrash** maqsadida uyushgan narkojinoyatchilikka butunlay chek qo‘yish borasidagi harakatlarimizni yangi bosqichga olib chiqishimiz, tezkor-profilaktik va tergov faoliyatini manzilli tashkil etishimiz kerak.

Ishonchim komil, ana shu ustuvor yo‘nalishlarda safarbarlikni kuchaytirib, birgalikda harakat qilib, ishimiz samarasini keskin oshirsak, xalqimizning chinakam roziligiga erishamiz.

Aziz do‘stlar!
Fursatdan foydalanib, siz, azizlarga Vatanimiz va xalqimiz tinchligi yo‘lida sadoqatli va fidokorona xizmatigingiz uchun samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Ushbu shonli ayyomda el-yurt tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan mard va jasur soha xodimlarining xotirasini hurmat bilan yodga olib, ularning oilalari va farzandlariga ezuq tilaklarimizni yo‘llaymiz.

Hech shubhasiz, ichki ishlar organlari xodimlarining mehnatini munosib qadrlash, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy ish sharoitlari, zarur texnik vositalar bilan ta’minlash, malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalalari doimo e’tiborimiz markazida bo‘lib qoladi.

Sizlarni bugungi shukuhli bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik, mas’uliyatli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz ichki ishlar organlaridagi ko‘p yillik samarali xizmati, yurtimizda jamoat xavfsizligi, xalqimiz osoyishtaligini ta’minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qo‘shgan munosib hissasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, profilaktika ishlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yo‘lidagi ibratli faoliyati, o‘z burchini sharafla va mas’uliyat bilan ado etib, mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatib kelayotgani, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

II darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan

Ashropov Ramazon Axmatxo‘jayevich — O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri o‘rinbosari

“Mardlik” ordeni bilan

Torebekov Baxtiyar Ismندیarovich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vaziri

Xusanov Ilyos Pardayevich — Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika inspektori

“Do‘stlik” ordeni bilan

Maxmudova Mariya Stepanovna — Toshkent shahar Yunusobod tumani bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi ekspert-kriminalistika bo‘limi katta eksperti

Tashxodjayev Ulug‘bek Shuxratovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti boshlig‘i

Xatamov Rustam Abduganiyevich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi boshlig‘i

“Jasorat” medali bilan

Abbasov Avliyo Israilxonovich — Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrol xizmati inspektori

Karimkulova Sayyora Kudratovna — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni jiro etish koloniyasi kichik inspektori

Xaitov Abdunayim Xayrullayevich — Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi katta tezkor vakili

Xudaynazarov Sanjar Farxodovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tezkor vakili

“Sodiql xizmatlari uchun” medali bilan

Abbasov Rustam Abdullajanovich — Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining maslahatchisi

Isayev Istam Qoryog‘diyevich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlari harbiy qism guruh komandiri o‘rinbosari

Maxmudov Xurshid Xusanovich — Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani ichki ishlar boshqarmasi probatsiya guruhi inspektori

Masharipov Atabek Sultanbayevich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Mirzajanov Muhammadjon Komiljanovich — Toshkent shahar Chilonzor tumani bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi profilaktika katta inspektori

Taganov Rasulbek Sobirovich — Xorazm viloyati Urganch shahar ichki ishlar

boshqarmasi patrol-post xizmati otryadi bo‘limi komandiri

Uralov Jaxongir Mamatkulovich — Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrol xizmati inspektori

Xolmatov Baxodir Fozilovich — Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahar ichki ishlar bo‘limi katta tezkor vakili

Choriyev Shuxrat Amirovich — Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Shamalov Tuychibay Deksambayevich — Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi patrol-post xizmati otryadi inspektori

Egarnova Difuza Rabbimkulovna — Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi tergov boshqarmasi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tergovchisi

“Shuhrat” medali bilan

Jumanov To‘lqinboy Sattorovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi departamenti boshlig‘i o‘rinbosari

Qulitrayev Utkir Quyliyevich — Surxondaryo viloyati Denov tumani ichki ishlar boshqarmasi bo‘limi boshlig‘i

Xasanov Dilshod Uktamjonovich — Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Xudoyberdiyev Sherzod Sayfulloyevich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Samarqand aeroportida xavfsizlikni ta’minlash bo‘limi boshlig‘i

Eraxmatov Dilshodbek Rejabovich — Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrol-post xizmati batalyoni bo‘limi komandiri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 24-oktabr

SH. MIRZIYOYEV

2

2025-yil 25-oktabr, 219-son

www.yuz.uz

f yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz

O‘ZBEKISTON

IQTISODIYOTI

7 FOIZ

O‘SISHI KUTILMOQDA

Sharh

2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti 7 foiz o‘shishi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot esa 3500 dollardan oshishi kutilmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyoti tashqi omillar bilan bog‘liq xatarlarga qaramay, joriy yilda yuqori o‘shish sur‘atlarini saqlab qoladi. Bu haqda Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Investorlar kuni”da ma‘lum qilindi.

BANK

Birinci yarim yillikda yalpi ichki mahsulot 7,2 foiz o‘tdi. Xalqaro valyuta jamg‘armasining qarz barqarorligi bo‘yicha so‘nggi tahliliga ko‘ra, tashqi va umumiy qarz yuki borasida xatarlar past darajada deb baholanmoqda. Davlat qarzi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pastligicha qolmoqda. Xalqaro tashkilotning ushbu e‘tirofi xorijlik investorlarning mamlakatimizga ishonchini oshirish bilan birga ularning O‘zbekiston bozoriga dadil kirishiga ham katta turki bo‘lmoqda.

Mutaxassislar ta‘kidlashicha, 2025-yilning may oyi boshida o‘tkazilgan energiya tariflari liberalizatsiyasiga qaramay, inflyatsiya ko‘tarilib ketmadi. Sentabr oyida inflyatsiya darajasi 8 foizgacha sekinlashdi. Bu ko‘rsatkich yil oxirigacha shu darajada saqlanib qolinishi kutilyapti.

O‘zbekiston moliya tizimi bashorat qilish mumkin bo‘lgan muhita tomon siljimoqda. Markaziy bank esa asosiy stavkani bozor uchun aniq va ishonchli signalga aylantirishga harakat qilmoqda.

O‘zbekiston Markaziy banki 2025-yilda inflyatsiya darajasini inflyatsion targetlash doirasida belgilangan 5 foizli maqsadli ko‘rsatkichga yaqinlashtirib, 8 foiz atrofida saqlab qolishni mo‘ljallamoqda. Bu haqda Markaziy bank raisi Timur Ishmetov ma‘lum qildi.

— Inflyatsiya pasayish tendensiyasida va biz uni bir xonali zonda — taxminan 8 foiz darajasida saqlab qolishni mo‘ljallaymiz. Yil yakuniga 5 foizli maqsadli ko‘rsatkichga yaqinlashamiz, — deya bayonot berdi u.

Xalqaro xaziralimiz hajmi ham rekord darajadagi 55 milliard dollarga yetdi, bu esa

iqtisodiyot uchun tashqi shoklardan kuchli himoya yostiqchasi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, suzuvchi valyuta kursi ham O‘zbekiston ichki iqtisodiyotiga moslashuvchanlik imkonini bermoqda.

Markaziy bank asosiy stavkani bozor uchun aniq va ishonchli signalga aylantirish

“**Markaziy bank raisining ma‘lum qilishicha, kreditlash, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes, ipoteka krediti va qishloq xo‘jaligi sohalarida o‘shishda davom etmoqda, bu esa inklyuziv o‘shishni qo‘llab-quvvatlaydi va moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, qarz dollarizatsiyasi bilan bog‘liq vaziyat sezilarli darajada yaxshilanmoqda.**

maqsadida pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishda davom etmoqda. Ya‘ni Markaziy bank asosiy stavka kreditlar va omonatlar bo‘yicha foiz stavkalariga, shuningdek, banklar, investorlar va korxonalar xattiharakatlariga chinakamiga ta‘sir ko‘rsatishini istaydi.

E‘tirof etish kerakki, so‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston bank tizimida keng ko‘lamli transformatsiya jarayonlari amalga oshirildi. Raqamlashtirish, korporativ boshqaruv va risklarni boshqarish sohalarida sezilarli o‘shishga erishildi. Xususan, bank tizimi barqaror, foydali va yaxshi kapitallashdi. Jami aktivlar 72 milliard dollarga yetdi, kapital yetarliligi 18 foizni tashkil etmoqda. Bu me‘yoriy talablardan ancha yuqori. Xususiy sektorga ajratilgan

kreditlar umumiy kreditlash hajmining 86 foizdan ortig‘ini tashkil etadi.

Markaziy bank raisining ma‘lum qilishicha, kreditlash, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes, ipoteka krediti va qishloq xo‘jaligi sohalarida o‘shishda davom etmoqda, bu esa inklyuziv o‘shishni qo‘llab-quvvatlaydi va moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, qarz dollarizatsiyasi bilan bog‘liq vaziyat sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Bir necha yil oldin barcha kreditlarning 50 foizdan ortig‘i xorijiy valyutada berilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich 30 foizga tushdi. Xorijiy valyutadagi omonatlar ulushi qariyb 20 foizgacha qisqardi, bu esa milliy valyutaga ishonch o‘shishiga xizmat qilmoqda.

2024-2025-yillarda Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki bilan hamkorlikda moliya sektorini baholashning birinchi dasturi (FSAP) o‘tkazildi. FSAP missiyasi nazorat, stress-test, korporativ boshqaruv va muammolarni hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qimmatli tavsiyalar berdi.

FSAP dasturi xulosalari asosida Markaziy bank bir necha yo‘nalishda, jumladan, risklarni baholash asosidagi nazorat, likvidlikni tartibga solish, makroprudensial nazorat va inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmlari bo‘yicha asosiy tavsiyalarni amalga oshirish uchun keng qamrovli harakatlar rejasini qabul qildi.

Bu investorlar uchun nima sababdan muhim? Chunki bu O‘zbekiston moliya tizimi yanada barqaror, shaffof va bashorat qilish mumkin bo‘lgan muhita siljiyotganini anglatadi.

Bundan tashqari, Markaziy bank innovatsiyalarni rag‘batlantirish bilan bir vaqtda iste‘molchilar himoyasini ta‘minlaydigan “buy now pay later”, ya‘ni “hozir sotib ol, keyin to‘la” segmentini tartibga solish me‘yorlarini ishlab chiqmoqda.

Yaqin kelajakda islomiy moliyalashtirish bo‘yicha yangi qonun qabul qilinishi kutilmoqda. Bu esa shariat tamoyillariga asoslangan bank mahsulotlari va vositalarini joriy etish imkonini beradi.

Ushbu qonun nafaqat moliyaviy tizimimizni xilma-xil qiladi, balki Yaqin Sharq, Janubi-sharqiy Osiyo va boshqa mintaqalardan islom moliyasi standartlari bo‘yicha ishlashdan manfaatdor investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Yunus BO‘RONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

Nigoh

KASABA UYUSHMALARI – BARQAROR JAMIYAT ASOSI

Inson huquq va erkinliklari ta‘minlangan, odamlari emin-erkin yashab, mehnat qilib, daromad topadigan mamlakatda davlat ham, jamiyat ham rivojlanadi. Xalqparvar ijtimoiy davlat qurish yo‘lidan dadil odimlab borayotgan yangi O‘zbekistondagi islohotlar aynan shunday ezgu maqsadlarga yo‘g‘rilgan. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oya asosida barcha sohada keng qamrovli yangilanishlar amalga oshirilyapti.

Bu jarayonda, eng avvalo, inson huquqlarini va mehnatni muhofaza qilish, har kimning kafolatlangan ijtimoiy himoyadan foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida e‘tibor qaratilayotir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va Mehnat kodeksi, shuningdek, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonunlar bu jabhadagi ishlarining huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi.

Inson qadriini ulug‘lash borasidagi amaliy ishlar ko‘lami ham kengayib borayotir. Ushbu sa‘y-harakatlar tufayli yaqin-yaqinlashgan farovon hayotimizga to‘siq bo‘layotgan qator salbiy omillar, jumladan, bolalar mehnati, majburiy mehnat kabi holatlarga barham berildi. Bugungi sanoat va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishida mehnatni muhofaza qilish, har kim munosib sharoitda ishlashi va mehnatiga yarasha haq olishi uchun qulay infratuzilma yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan har bir vazirlik, idora, davlat va nodavlat tuzilmalar qatorida eng xalqchil va katta nodavlat tashkilot bo‘lgan kasaba uyushmalari bu yil 120 yillik yubileyini nishonlamoqda. Shuningdek, 11 noyabr — O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuniga qizg‘in taraddud ko‘rilayotir.

Ushbu muhim sanalar arafasida Prezidentimiz kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Tadbirda davlatimiz rahbari nutq so‘zlab, soha vakillari bilan muloqot qildi.

Uchrashuvda qayd etilganidek, mamlakatimizda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidagi islohotlar jarayonida ijtimoiy institutlarni qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, kasaba uyushmalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur sharoit yaratib berildi. O‘z navbatida, kasaba uyushmalari ham bu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, jamiyatimizdagi islohotlarga munosib hissa qo‘shmoqda.

Xususan, kasaba uyushmalari korxona va tashkilotlarda mehnatga oid huquqlarni himoya qilishda alohida jonbozlik ko‘rsatmoqda. Keyingi yillarda 500 mingga yaqin xodimning qonuniy huquqlari himoya qilingani, ularning foydasiga 267 milliard so‘m undirib berilgani buning isboti. Qolaversa, ishdagi baxtsiz hodisalar tufayli jabrlangan 1000 nafar xodimga 35 milliard so‘m tovon puli to‘lab berildi. Nohaq bo‘shatilgan 13 ming xodim ishga tiklandi.

Kasaba uyushmalarining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzi ham ortib bormoqda. Federatsiya tashabbusi bilan 2021-yilda Toshkent shahrida Markaziy

ham belgilab berildi. Xususan, kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirish, mehnat munosabatlarini yangicha tamoyillar asosida rivojlantirish bo‘yicha bir qancha takliflar, tashabbuslar ilgari surildi.

Jumladan, kelgusi yildan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga oid qonunchilik hujjatlari loyihasini ishlab chiqishga Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha uch tomonlama respublika komissiyasini (Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Ish beruvchilar konfederatsiyasi) ham jalb qilish taklif etildi. Bu mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda xodimlar manfaatini kafolatli himoya qilish bo‘yicha yangicha yondashuv bo‘ladi.

Globallashtirish va raqamli taraqqiyot sharoitida mehnat munosabatlari sohasida yangi shakllar ham keng ommalashmoqda. Bu imkoniyatlar tufayli 6 millionga yaqin kishi o‘zini o‘zi band qilib, ro‘zg‘or tebratmoqda. Mahallalarni drayver sohalarga ixtisoslashtirish hisobidan 1,5 million oila o‘z xonadonida ishlab, daromad olmoqda. Ana shunday yangicha tizimlarda faoliyat yuritayotganlarning mehnat huquqlarini himoya qilish ham dolzarb vazifalardan.

— Har bir insonga munosib mehnat, kasb sohasida o‘shish, dam olish va salomatligini tiklash uchun zarur sharoit yaratish yurtimizdagi islohotlarning muhim yo‘nalishidir, — deydi Ta‘lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining Navoiy viloyati bo‘yicha mas‘ul xodimi Anora Bobomurodova. — “Ijtimoiy davlat” maqomini olgan mamlakatimizda bu borada keng qamrovli ishlar qilyapti. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda pensiya, nafaqa va ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste‘mol xarajatlaridan oz bo‘lmasligi qat‘iy belgilab qo‘yildi. Birinchi marta minimal iste‘mol xarajati ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori har yili oshirib borilyapti.

“**Hayot sifati nafaqat ish haqi, balki ijtimoiy muhit bilan ham belgilanadi. Buning uchun mehnatkashlarning uy-joy, zamonaviy tibbiy xizmat va boshqa muhim ehtiyojlarini kafolatli ta‘minlash, eng zarur hayotiy ehtiyojlariga yetadigan daromad topishiga sharoit yaratish yo‘lida izchil islohotlar amalga oshirilyapti.**

MAHALLA – YANGILANISH MANZILI

Keyingi yillarda mahalla tizimi tubdan isloh qilindi. Natijada odamlarning ishonchi mustahkamlandi. Chunki aholi o‘zini qiynayotgan muammolar yuzasida mahallaga murojaat qilib, shu yerning o‘zida barcha savollariga javob oladigan xalqchil tizim yaratildi.

Azizjon JUMANOV,
O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Navbahor tumani bo‘limi bosh mutaxassisi, “Mahalla iftixori” ko‘krak nishoni sohibi

Uzoq yillar Navoiy viloyatining Navbahor tumani Beshrabot mahallasida rais bo‘lganman. Biz ishlagan paytdagi mahallalar bilan hozirgilari o‘rtasida juda katta farq bor. Davlatimiz rahbarining mahalla tizimini yanada takomillashtirish va joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalari yuzasidan o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida ishtirok etib, bunga yana bir bor amin bo‘ldim.

Joriy yilning may-iyul oylarida mahalla fuqarolar yig‘ini raisi saylovi o‘tkazilgan edi. Unda xalq o‘zi ishongan, mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun aniq dasturga ega nomzodlarni sayladi. Tumanimizda 38 ta mahalla bor. Ularning barchasida “mahalla yetiligi” ishini tashkil etishda raisga yelkadosh bo‘lmoqda.

Prezidentimiz yig‘ilishda alohida urg‘u berganidek, joriy yildan boshlab mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirildi. Ular boshchiligidagi “yettilik” vertikal tizimi yaratildi. Yetarli sharoit, resurs va vakolatlar berildi. Har bir imkoniyatni loyihaga aylantirib, ish o‘rni yaratish uchun mahallalarga bankir va soliqchilar birlashtirildi. Infratuzilmaga ham alohida mablag‘ ajratilmoqda.

Bugunning gapi

Yana bir e‘tiborli jihat, tumanimizdagi mahallalarga viloyat va tuman darajasidagi rahbarlar birlashtirildi. Ular “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish uchun mas‘ul etib belgilangan. Bu o‘z natijasini bermoqda. Har bir mahalladan tanlab olingan kambag‘al oilalarning daromadga kirishi, farzandlari ta‘lim-tarbiyasi, uy-joy sharoitini yaxshilashga erishilyapti.

Prezidentimiz qaysi hududda bo‘lmasin, albatta, mahallaga kirib bormoqda. Xalqimiz bilan samimiy suhbat qilib, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, odamlar dunyoqarashini o‘zgartirishga e‘tibor qaratmoqda. Bugun odamlarning kayfiyati ham, ruhiyati ham, bajarayotgan ishlari ham yangi O‘zbekistonga mos bo‘lmog‘i lozim. Hududlarga yangi O‘zbekiston ruhi kirib borishini ta‘minlash maqsadida respublika bo‘yicha 330 ta mahalla tanlab olindi. Tez kunlarda bu mahallalar tanib bo‘lmas darajada qiyofa kasb etadi. Albatta, bunday sa‘y-harakat “mahalla yetiligi”ga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Tanlab olingan tumanlarning har biriga 100 milliard, 330 ta mahallaning har biriga 5 milliard so‘mdan ajratiladi. Yo‘l, infratuzilma, kommunikatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy

masalalar to‘liq hal etiladi. Bu juda katta voqealik. To‘g‘risi, ilgari mahallaga buncha mablag‘ ajratilishini tasavvur qilish ham qiyin edi. Yig‘ilish davomida davlatimiz rahbarining mahallaga e‘tiborini ko‘rib, dildan quvondik. Mahallada mana shunday imkoniyatlar yuzaga kelishi xalqimizning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlaydi.

O‘tgan yildan boshlab soliq tushumlarining 10 foizi mahallaning o‘zida qolishi amaliyoti joriy etildi. Bu “yettilik” qancha ko‘p soliq tushirsa, shuncha ko‘p imkoniyatga ega bo‘ladi degani.

Prezidentimiz bu borada yana bir yangilikni e‘lon qildi. Joriy yildan boshlab Soliq qo‘mitasi yer va mol-mulk soliqlarini to‘langanlik darajasiga qarab “Eng yaxshi soliq to‘lovchi mahalla” reytingini e‘lon

qiladi. Bunda 100 talikka kirgan mahallaga “Tashabbusli budget”ning yangi tizimi bo‘yicha infratuzilma xarajatining 75 foizi byudjetdan to‘lab beriladi. Shuningdek, ushbu mahallalarning har biriga qo‘shimcha 2 milliard so‘mdan ajratiladi.

Tasavvur qiling, bu qanday katta imkoniyat. Mana shu tizimdan samarali foydalanishning o‘zi mahalla muammolarini kutil hal etish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun, albatta, “yettilik” ishini to‘g‘ri tashkil etsa, odamlar orasida targ‘ibot ishlari olib borsa, kutilgan natijaga erishiladi.

Yig‘ilishda aytilgan bir muhim masala meni yanada ruhlantirdi. Sir emas, uzoq yillar tabiatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lmadik. Minglab daraxtlarni nobud qildik. Shu bois, hozirgi global iqlim o‘zgarishi davrida “yashil makon” yaratish dolzarb.

Endi “mahalla yetiligi” yashil hudud qilish tashabbusi bilan chiqa, tuman hokimi 10 sotixgacha yer ajratib berishi belgilandi. Ilgari mana shunday tashabbus bilan chiqayotgan yurtdoshlarimiz faqat rad javobini olar edi. Tasavvur qilaylik, har bir mahallada 10 sotixdan yashil hudud barpo etilsa, bu qancha kislorod, qancha daraxt degani. Ushbu muhim masalaga “mahalla yetiligi” alohida e‘tibor qaratib, aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlari boshlab yubordi.

Mazkur yig‘ilish mahallalar hayotida ulkan o‘zgarishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, mahalla raislari aytilgan har bir so‘zdan tegishli xulosalar chiqarib, faoliyatini tashkil etsa, ko‘zlangan marraga, albatta, erishamiz.

Osiyo davlatlari kasaba uyushmalari kengashi tuzildi. 2023-yilda Samarqand shahrida Turkiya davlatlari kasaba uyushmalari tashkilotiga asos solindi. O‘tgan yili Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasiga a‘zo bo‘lgani federatsiyaning mavqeini yangi bosqichga olib chiqadigan tarixiy voqea bo‘ldi.

Uchrashuvda kasaba uyushmalari faoliyatini yanada rivojlantirish va mehnat munosabatlarini takomillashtirish bo‘yicha galdagi vazifalar muhokama qilindi.

— Mazkur uchrashuv 8 millionga yaqin a‘zosi bo‘lgan yirik tashkilotimiz uchun katta tarixiy voqea bo‘ldi, — deydi O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi o‘rinbosari Baxtiyor Mahmadiyev. — Tadbirda tizimda qilinayotgan ishlar, erishilayotgan natijalar tahlil etilishi barobarida oldimizda turgan vazifalar

Tadbirda “Kuchli kasaba uyushmalari — kuchli jamiyat asosi” degan tashabbus bilan kasaba uyushmalari faoliyatini yanada takomillashtirish va mehnat munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha istiqboldagi vazifalar belgilab berildi. Kasaba uyushmalari harakatining 120 yillik yubileyi munosabati bilan mehnatkash xalqimizga chuqur hurmat va ehtirom ifodasi sifatida har bir hududda “Kasaba uyushmalari bog‘lari”ni barpo qilish taklif etildi. Ushbu chora-tadbirlar o‘z vaqtda bajarilishi mehnatkashlarning huquq va manfaatlari himoyasini yanada kuchaytirish, eng muhimi, inson qadriini ko‘zlab amalga oshirilyotgan islohotlar bardavomligiga asos bo‘ladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Zokirjon ALMATOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligining
general-polkovnik

O‘zbekistonda inson hayoti, erkinligi, sha’ni va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatdir. Mamlakatimizda har bir inson tinch-osoyishta yashashga haqli. U turli jinoyi tajovuzlardan himoya qilinishi kerak. Bu huquqlarning ta’minlanishida ichki ishlar organlari muhim o‘rin tutadi.

Qonun ustuvor joyda taraqqiyot bo‘ladi, inson qadr topadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu — ichki ishlar sohasi, desak ayni haqiqat bo‘ladi”. Ushbu mas’uliyatli vazifalarni samarali bajarish, ichki ishlar organlarini xalqchil tuzilmaga aylantirish uchun tizimda so‘nggi yillarda keng qamrovli islohotlar o‘tkazilmoqda.

Ushbu jarayon joriy yilda yangi bosqichga ko‘tarildi. Avvalo, jinoyatchilikka qarshi kurashish, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi yondashuv tubdan o‘zgartirildi. Ichki ishlar organlarida kriminogen vaziyatni tahlil qilish va jinoyatchilik dinamikasini prognoz qilishning mutlaqo yangi mexanizmi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida dasturlamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu hujjatda har bir mahallada huquqbuzarliklarning oldini barvaqt olish barcha rahbar uchun ustuvor vazifa etib belgilandi. O‘rgan yil tahillari ko‘ra, kriminogen vaziyat og‘ir deb topilgan 1235 ta mahalla tuman-shahar rahbarlariga nomma-nom biriktirildi.

Qaror doirasida Farg‘ona, Andijon, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida 419 ta mahallani qamrab olgan 84 ta “Mahalla huquq-tartibot maskani” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bundan ko‘zlangan maqsad ushbu maskanlar xodimlarining xizmat samaradorligini oshirish, tezkorligini ta’minlab, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirishdan iborat edi. Shuningdek, profilaktika inspektori yordamchilari o‘rniga profilaktika kichik inspektori lavozimi, migratsion profilaktika bo‘linmalari, tumanlararo “ma’muriy konvoy guruhlari”, “ma’muriy amaliyot guruhlari” tashkil etildi.



G‘ayrat QODIROV,
Jizzax viloyati IIB boshlig‘i,
general-mayor

Yurtimiz istiqloli va ravnaqini ta’minlashdek ulug‘vor maqsad yo‘lida ichki ishlar organlari hamisha xalqimiz bilan hamnafas, hamqadam bo‘lib kelayapti. Bunga ellik yillik xizmatim davomida to‘la ishonch hosil qilganman. Ana shu davrda ko‘plab yaxshi-yomon voqealarga guvoh bo‘lganim ham rost. Jumladan, o‘rgan asrning 80-yillarida xodimlarning boshqa tashkilotlardan ajratilgan yuk mashinalari yoxud traktorlarda voqea joyiga chiqishi hech kimni ajablantirmasdi. Mazkur muammo sabab ko‘lga olingan jinoyatchi ichki ishlar bo‘limiga yayov yoki avtobusda keltirilishi tez-tez kuzatiladigan hodisa edi.

Asrimiz boshlarida ham vaziyat unchalik o‘zgarmadi. MDHga a’zo davlatlarda o‘tkazilgan tadbirlarda xorijlik hamkasblarimizga qancha maosh olishimizni aytishga tortinadigan paytlarimiz ham bo‘lgan. Siyosiy va iqtisodiy sabablar bois, Toshkent xalqaro anjumanlar o‘tkaziladigan maydon sifatidagi mavqei qariyb yo‘qotgandi. Ya’ni boshqa davlatlarda

Tizimdagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2025-yil 18-avgustda davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat mahallalarda xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha tashkiliy-profilaktik tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda alohida yondashuv asosida manzilli ishlash mexanizmlarini joriy etishni ko‘zda tutadi. Mazkur qaror bilan so‘nggi besh yilda kriminogen vaziyati murakkab bo‘lib qolayotgan mahallalarda jinoyatlarini jilovlash bo‘yicha manzilli choralar konsepsiyasi tasdiqlandi.

Konsepsiya asosida kriminogen vaziyati murakkab bo‘lgan har bir mahallada alohida har oyyik “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Bevosita mahallaning o‘zida tuman-shahar IIB rahbari va prokurorining xizmat xonasi tashkil etildi. Bugun mahallalarda viloyat darajasida biriktirilgan IIB boshlig‘i va prokurorning o‘rinbosarlari, sohaviy xizmatlar rahbarlari haftada uch kun to‘liq shu yerda faoliyat yuritaypti. Mahallalarda kechayu kunduz kuch va vositalarning tezkor harakatlanishini ta’minlash maqsadida 2 nafar profilaktika inspektori sharti kiritildi, 2 nafardan iborat patrul-post xizmati naryadining faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda 1 nafar tezkor xodim biriktirildi. Bosh prokuror va ichki ishlar vazirining qo‘shma qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, respublikamizning kriminogen vaziyat murakkab mahallalari hamda ularga biriktirilgan mas’ullar o‘rnatilgan.

Ko‘rilayotgan amaliy chora-tadbirlar o‘z samarasini bermogda. Xususan, bahor va yozda jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibi va aholi xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ikki bosqichli “Xavfsiz va sog‘lom yurt” tezkor-profilaktik oyligi o‘tkazildi. Natijada oldi olinishi lozim bo‘lgan jinoyatlar

39 foiz kamaydi, xodimlarning tashabbusi bilan jinoyatlarni aniqlash 50 foiz yaxshilandi.

Jamoatchilikni jiddiy tashvishga, hatto xavotirga solayotgan muammolardan biri gijohvandlik illatidir. Unga qarshi kurashish hamisha diqqatimiz markazida. Respublika maxsus tergov-tezkor va hududiy tezkor guruhlarining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, narkojinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida yangicha ishlash mexanizmi amaliyotga joriy etildi.

Jumladan, gijohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishini bartaraf etish yo‘nalishida tunu kun faoliyat ko‘rsatadigan “Call-markaz” tashkil etilgan.

Ushbu markazga kelib tushgan 637 ta ma’lumotning 467 tasi bo‘yicha fuqarolarga huquqi yordam berildi, 118 tasi bo‘yicha esa tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazildi.



Murojaatlarga e’tibor insonga e’tibor demakdir. Boisi, har bir murojaat zahirida kimningdir taqdiri, dardu tashvishi, orzu-umidi yotadi. Vazirlik tizimida fuqarolarni qabul qilish bo‘yicha yangicha tizim yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tartibga muvofiq, har oyda bir marotaba ichki ishlar vaziri, har haftada bir marta vazir o‘rinbosarlari qabul qilish tashkili etilmoqda. Vazir o‘rinbosarlari har haftaning seshanba kuni surishtiruv va tergov, chorshanba kuni kadrlar bilan ishlash, payshanba kuni huquqbuzarliklar profilaktikasi va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha shaxsiy qabullar o‘tkazib kelmogda.

Ichki ishlar organlariga joriy yilning 9 oyi mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari orqali 85 ming 983 ta murojaat kelib tushdi. Ularning 76 foizi qanoatlantirilgan. Hududiy ichki ishlar organlarining birinchi rahbarlari tomonidan aholi bilan doimiy ravishda kunlik shaxsiy va ommaviy sayyor qabullar o‘tkazib borilmoqda.

Xususan, o‘rgan 9 oyda hududiy ichki ishlar organlarining birinchi rahbarlari tomonidan o‘tkazilgan shaxsiy va sayyor qabullar jarayonida 31 ming 624 fuqaro bilan ochiq mulohot qilinib, aniqlangan muammolarni hal qilish choralari ko‘rildi.

Yoshlar — kelajagimiz egalari, yangi O‘zbekiston bunyodkorlaridir. Vatanimiz istiqbol ularga bog‘liq. Xalqimizning yosh avlodidan umidi katta. Biz esa, o‘z navbatida, ular orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘ryapmiz. Respublika bo‘yicha tarbiyasi og‘ir 25 ming yosh ichki ishlar organlari rahbarlariga biriktirildi. Ularning 7560 nafarida muammolar borligi aniqlanib, hal etildi.

Jumladan, “mahalla yetiligi” va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda bu yoshlarning 1194 nafari profilaktik hisobdan va 488 nafari probatsiya nazoratidan chiqarildi, 410 nafarining oilaviy kelishmovchiliklari hal etilib, ajralish yoqasidagi 283 ta oila tiklandi, 883 yigit-qiz ishga joylashtirildi, 330 nafari

kasb-hunarga va 102 nafari fan va chet tillarga o‘qitilmoqda.

Respublikamizdagi maktablarda o‘quvchilarning darsda to‘liq qatnashishini ta’minlash, ular orasida noxush holatlarning oldini olish maqsadida 2000 nafar inspektor-psixolog, profilaktika inspektorlari va qo‘riqlash xizmati xodimlari maktablarga biriktirildi. Poytaxtimizning Olmazor va Yakkasaryoy tumanlaridagi 45 ta maktabda davomatni onlayn nazorat qilish tizimi joriy etildi. Ushbu yangilik bosqichma-bosqich barcha maktabga tatbiq qilinaypti. Xavfsizlikni ta’minlash maqsadida 10 ming 472 ta maktabga “tashvish tugmalari” o‘rnatildi.

Davlatimiz rahbarining topshiriqlari asosida bu yil birinchi marotaba IIVning 14 ta hududdagi akademik litseylari va ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga og‘ir toifadagi 400 yosh qabul qilinib, ichki ishlar organlari tomonidan otaligga olindi.

Hozir ularni o‘qitish, yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kelgusida barkamol insonlar sifatida kamol topishlariga ko‘maklashish borasida tizimli jarayonlar amalga oshirilmoqda.

Bugun qaysi sohada bo‘lmasin, faoliyat samaradorligi ko‘p jihattan axborot texnologiyalaridan qay darajada foydalanishga bog‘liq. Shu maqsadda barcha hududda “Xavfsiz shahar” tizimining sun’iy intellekt asosida boshqariluvchi “Qalqon” nomli dasturiy platformasi ishga tushirildi. Unga 60 ming 308 ta videokuzatuv kamerasi hamda vazirlik va idoralarning 40 ga yaqin ma’lumotlar bazasi integratsiya qilindi. “Xavfsiz shahar” markazi tomonidan “qizil” toifadagi 1373 ta mahallaga 23 ming 755 ta kamera o‘rnatildi.

Har qanday tizimni yuqori malakali kadrlar rivojlantiradi. Ichki ishlar organlari ham bundan mustasno emas. 2025-yilda soha uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida qator ishlar qilindi. Jumladan, IIV akademiyasi kunduzgi ta’lim shakli qabul kvotasi 900 taga oshirildi, keyingi o‘quv yilidan 1100 taga yetadi.

Kiberjinoyatchilik zamonaviy xavf-xatarlardan biriga aylanib ulgurdi. Shu sababli IIV akademiyasida raqamli texnologiyalar sun’iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilib, 100 nafar abituriyent qo‘shimcha o‘qishga qabul qilindi. “Bir million dasturchi” loyihasi dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan nomzodlarni akademiyaning mazkur ta’lim yo‘nalishida o‘qishga qabul qilish tartibi belgilandi. Vazirlikning akademik litseylarida raqamli texnologiyalar yo‘nalishi tashkil etilib, unga 289 o‘quvchi qabul qilindi.

Akademiyada terrorizmga qarshi kurashish faoliyati mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim yo‘nalishi ochildi, dual ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ichki ishlar organlarida 3-yillik ish stajiga ega xodimlar uchun masofaviy ta’lim shakli joriy qilindi.

Shu yil davomida vazirligimiz tarkibida qator tashkiliy-tarkibiy o‘zgarishlar yuz berdi. Prezidentimizning 2025-yil 4-martdagi farmoniga asosan, Qo‘riqlash departamenti Ichki ishlar vazirligi tarkibiga o‘tkazilib, ushbu sohaviy xizmat oldiga aniq va muhim vazifalar qo‘yildi. Shundan so‘ng ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning birinchi yarmida qo‘riqlash bo‘linmalari qo‘riqlovidagi obyektlar soni 30 foiz oshdi.

Shuningdek, Personalashtirish agentligi Ichki ishlar vazirligi tizimiga o‘tkazilib, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi IIV huzuridagi migratsiya va personalashtirish departamenti etib qayta tashkil qilindi. Mazkur departament tomonidan “Yagona migrant” bazasi ishga tushirilib, uzoq muddat xorijda yurgan 2 million 200 mingdan ziyod hujumtirmiz bilan shubhat o‘tkazildi.

Vazirlik tarkibidagi axborot texnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash boshqarmasi hamda huquqiy statistika bosh markazi negizida raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika departamenti tashkil etildi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida hududlarda axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmalari tashkil etilib, kibexavfsizlik markazi va hududiy boshqarmalarning shtat birliklari ko‘paytirildi.

Joriy yil 9-iyul kuni Prezidentimiz raisligida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda sohadagi dolzarb masalalar, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish samaradorligini oshirish yuzasidan tanqidiy fikrlar bildirildi.

Videoesektorida ko‘rsatib o‘tilgan muammoli masalalarni hal etish maqsadida IIV yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshlig‘i rahbarligida ischi guruh tuzildi. Ischi guruh a’zolari tomonidan shahar va tumanlarda muammoli masalalar joyiga chiqqan holda o‘rganilib, har bir hudud uchun “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi va kompleks chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.



Aholi e’tirozlariga sabab bo‘layotgan mahalla va tashkilotlar atrofida yo‘llarda tirbandlikni keltirib chiqarayotgan 228 ta noqonuniy to‘siq hamda 739 ta yo‘l belgisi olib tashlandi. Yo‘l bo‘yida transport vositasini tartibsiz qoldirib ketish holatlarining oldini olish maqsadida 112 ta foto va videokamera, Toshkent shahrida 7 ta hamda Andijon viloyatidagi 4 ta obyektda haydovchining shaxsiya avtomatik aniqlik kiritish imkoniyatiga ega foto-videoqurilma (face ID) o‘rnatildi. Uzoq muddatdan buyon texnik ko‘rikdan o‘tmagan 313 ming 110 ta transport vositasi inventarizatsiyadan o‘tkazildi. Mast haydovchilarni aniqlash bo‘yicha elektron platforma ishga tushirilib, 1346 ta zamonaviy alkotester qurilmasini onlayn nazorat qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Turli sohaviy xizmatlar xodimlari tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning 9 oyida oldini olish lozim bo‘lgan jinoyatlar soni o‘rgan yilning mos davriga nisbatan 31 ming 813 tadan 28 ming 849 taga yoki 9 foiz kamaydi. Qotillik, o‘g‘rilik, talonchilik, bosqinchilik, firibgarlik, bezorilik jinoyatlari, yo‘l-transport hodisalari sezilarli darajada qisqardi. Kriminogen vaziyat og‘ir bo‘lgan mahallalarning 44 foizida birotta ham jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Umuman olganda, respublikamizdagi 9000 dan ziyod mahallaning 4924 tasida yoki 55 foizida jinoyat sodir etilmadi.

Bu raqamlar, albatta, davlatimiz rahbari tomonidan aholi farovonligini oshirish borasidagi islohotlar, jumladan, ichki ishlar organlari tizimiga qaralayotgan alohida e’tibor samarasidir.

Prezidentimiz bizning oldimizga “Ichki ishlar xodimlari shunday ishlashi kerakki, toki xalq davlatdan rozi bo‘lsin” degan yuksak talabni qo‘ygan.

Ichki ishlar organlariga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik har bir xodimdan tunu kun o‘z ustida ishlash, xalqimizning ishonchini oqlash uchun fidoyilik bilan xizmat qilishni talab etadi.

Xodimlarimiz ushbu talabdan kelib chiqqan holda ota Vatanimiz, jonajon xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, yurtdoshlarimizni rozi qilish yo‘lida zimmasidagi mas’uliyatli, ayni paytda sharaflil vazifalarini matonat va sadoqat bilan bajarmogda.

Eng muhimi, yurtdoshlarimiz hayotdan, davlatimizdan rozi bo‘lib, ichki ishlar organlarining har bir xodimi timsolida o‘z himoyachisini ko‘rishga erishmog‘imiz shart.

ENG OLIY SAODAT

EL-YURT MANFAATI UCHUN KURASHIB YASHASHDIR

Insoniyat boshdan kechirgan minglab urushlar tahlili yurtini himoyalay olgan xalqlariga o‘z davlatiga ega ekanini ko‘rsatmoqda. Yer yuzida 4000 dan ziyod elat va xalq yashashi, ammo 200 ga yaqin mamlakat mavjudligi faktirimi tasdig‘idir. Insoniyat tafakkuri qanchalik taraqqiy etmasin, tabiatning faqat kuchlilariga omon qolishiga oid ayovsiz qonuni bugun ham o‘zgarmaganini sezish qiyin emas. Vatan mustaqilligi, tinchligi va taraqqiyotini ta’minlash ayni paytda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

o‘tkaziladigan yig‘ilishu tadbirlarga borardik, lekin boshqalarni yurtimizga taklif qilolmasdik. Odamlar panohni, muammolariga yechimini huquqni muhofaza qiluvchi organlardan emas, jinoyat olami vakillaridan kutadigan davrda ham yashadik. Transport va zarur vositalar, yonilg‘i yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi faoliyatimiz samaradorligiga, tizim nufuziga jiddiy ta’sir ko‘rsatgandi. Hatto ichki ishlar organlari o‘z qonuniga ega emasdi.

Soha vakillari zimmasiga faoliyatga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan topshiriqlar yuklanar, xususan, kuz kelavursa, aholini paxta terimiga jalb qilish tashvishiga tushib qolardik. Bular hammasi ommaning haqli e’tirozlariga, tizim haqida salbiy tasavvurlar uyg‘onishiga sabab bo‘lardi. Shunga qaramay, xodimlar o‘z burchini siqdiqildan bajarishning uddasidan chiqardi. Bilim va tajribaga tayanilgan holda jinoyatlar ochilar, jazo muqarrarlari ta’minlanardi.

Ko‘pchilik bilsa kerak: o‘sha davrda mamlakatimiz chegaralarining bir qismi ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan qo‘riqlanardi.



vakolatlarining aniq chegaralari belgilandi, xodim, fuqaro, gumonlanuvchi, ayblanuvchi va jinoyatchi o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarga doir tushunmovchiliklar barham topdi. Xizmat avtomashinalari, yarog‘ va vositalar, yonilg‘i yetishmasligi kabi muammolar o‘rtasida qoldi.

Tizimning moddiy-texnik bazasi izchil takomillashtirilmoqda. Chunonchi, o‘rgan 8-yilda Jizzax viloyati ichki ishlar organlariga qarashli 30 dan ziyod muassasa ta’mirlandi, yangilari barpo etildi. Xususan, Zarbdor, Do’slik va Paxtakor tumanlari ichki ishlar bo‘limlari, viloyat IIB jamoat tartibini saqlash boshqarmasi, “102” xizmati, tibbiyot bo‘limida qulay xizmat sharoiti yaratildi.

Ayni vaqtda Yangiobod tumani IIB jamoasi uchun bino qurilmoqda. G‘allaorol tumani IIB binosi kapital ta’mirlanayotir. Keyingi 2-yilda Baxmal tumani IIB hamda viloyat IIB tergov vazifalarni bajaruvchi safarda viloyat otryadi uchun bino, tibbiyot bo‘limi hududida 4 qavatli davolash muassasasi, Zomin tumanida 100 o‘rinli reabilitatsiya markazini qurish, Jizzax shahri ichki ishlar boshqarmasini kapital ta’mirlash ko‘zda tutilgan.

Yangilanishlar jarayoni shaxsiy tarkibning kasbiy mahoratini oshirish, jismoniy va javogvar tayyorgarligini kuchaytirishga qaratilgan imkoniyatlarimizni ham kengaytirdi. Ichki ishlar organlari rahbarlarining voleybol va aralash jang san’atini rivojlantirishga mas’ul etib belgilangani soha vakillarini sportga yanada yaqinlashtirdi. Viloyat ichki ishlar organlari xodimlarining 8 nafari jahon va xalqaro, 27 nafari respublika miqyosidagi musobaqalar g‘olibi ekanini fikrimiz tasdig‘idir.

Tizimdagi o‘zgarishlardan yana biri axborot texnologiyalari bilan bog‘liq. Bugun dunyoning eng chekka burchagidagi voqealardan ham bir necha soniya ichida xabarador bo‘lish, ma’lumot almashish mumkin. Mazkur imkoniyatlar ko‘p-lab sohalarning misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Ammo jinoyatchilar ham axborot texnologiyalaridan ustalik bilan foydalanaypti. Ijtimoiy tarmoqdagi

firibgarliklar, o‘g‘riliklar, iqtisodiy va moliyaviy tizimlarga uyushtirilayotgan kiberhujumlar shular jumlasidan.

Shu texnologiyalardan vayronkor g‘oyalarni tarqatishda ham foydalanilmoqda. Shu ma’noda, IIV hamda hududiy ichki ishlar boshqarmalarida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish sohaviy xizmati shakllantirilib, shaxsiy tarkib eng zamonaviy uskunalar bilan ta’minlandi. Qolaversa, Jizzax viloyati IIB “102” xizmati negizida “Qalqon” platformasini ishga tushirish ustida ishlanyapti.

Ushbu platforma viloyatdagi barcha kuzatuv kameralarini qamrab oladi. Bu esa qidiruvdagi hamda bedarak yo‘qolgan shaxslarni, olib qochilgan avtomashinalar, o‘g‘irlangan yoki tushirib qoldirilgan buyumlarni topishda, probatsiya xizmati nazoratidagi mahkumlarni kuzatishda qo‘l keladi. Shuningdek, sohaviy xizmatlar xodimlari faoliyatida “e-patrul”, “e-probatsiya”, “e-material” kabi 50 dan ortiq dastur keng qo‘llanmoqda. Natijada ma’lumot olish, almashish va tahlil qilish, hujjatlarini yuritish tezlashdi, qulaylashdi. So‘nggi 7-yilda shaxsiy tarkibimiz 180 ta turli rumisdagi xizmat avtomashinasini hamda 20 ta mototransport bilan ta’minlandi.

Bundan tashqari, “Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz mahalla” kabi tamoyillar hayotga izchil tatbiq etilayotgani odamlar ko‘nglini xotirjam qilmoqda. Zero, har bir mahallaga bir yoki ikki nafar profilaktika inspektori biriktirilgan, huquq-tartibot maskanlari barpo etilayotgani, ko‘cha va yo‘laklar xavfsizligi ta’minlanayotgani, kuzatuv kameralari, yoritkichlar o‘rnatilishi, oyma-oy o‘tkazilayotgan tezkor va profilaktik tadbirlar aholi punktlarida osoyishta muhit yaratish, fuqarolar huquq va manfaatlarini to‘laqonli himoyalashga xizmat qilaypti.

Soha vakillari davlatimiz rahbarining “El-yurt manfaatini uchun kurashib yashash — eng oliy saodatdir” degan so‘zlarini shiorga aylantirgan holda yangi O‘zbekistondagi islohotlarga uyg‘un faoliyat yuritishga intilmoqda. Mazkur jihat qonunbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid ko‘rsatkichlarda yaqqol aks etmoqda.

XXI asr xalqaro munosabatlar tizimida fan, texnika va axborot texnologiyalari integratsiyasi global siyosiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, kosmik sohadagi faoliyat nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyot ko'rsatkichi, balki davlatning geosiyosiy nufuzi va innovatsion salohiyatining ham muhim indikatori sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy “kosmik diplomatiya” tushunchasi milliy manfaatlar, xavfsizlik, axborot suvereniteti va iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u xalqaro munosabatlarda yangi formatdagi muloqot va hamkorlik maydonini yaratmoqda.



Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida bu sohada hamkorlik yo'lga qo'yilishi tuzilmaning yangi strategik yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, tashkilotga a'zo mamlakatlarning umumiy ilmiy tadqiqot salohiyati, kadrlar zaxirasi va geografik ustunliklarini hisobga olgan holda kosmik diplomatiya sohasi ularning integratsiya jarayonlarida “innovatsion ko'pri” vazifasini bajarishi mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu boradagi islohotlarni milliy va mintaqaviy miqyosdagi taraqqiyot omili sifatida ko'radi. Davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligida



KOSMIK DIPLOMATIYA

YANGI FORMATDAGI MULOQOT VA HAMKORLIK MAYDONINI YARATMOQDA

masofaviy monitoring tizimlarini joriy etish zarurligini ta'kidlab, bunday degan edi: “Yer va suv resurslari taqdiri to'g'ridan to'g'ri raqamli boshqaruv va kosmik ma'lumotlar bilan bog'liq. Biz bu sohada zamonaviy yechimlarga tayanishimiz shart”.

Mazkur iqtibosdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston rahbariyati kosmik sohani milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida ko'rib, uning turkiy integratsiya doirasidagi hamkorlik salohiyatini kuchaytirishga katta ahamiyat qaratmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti rivojlanib borayotgan mintaqalararo tuzilmalardan biri. U turkiy tilli mamlakatlarning etnolingvistik birligi asosida tashkil topgan. Tashkilotning asosiy maqsadi a'zo davlatlarning har tomonlama do'stlik va hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan.

Prezidentimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosati, uzoq va yaqin davlatlar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash borasidagi tashabbuslari tufayli keyingi yillarda O'zbekistonning do'stlari, xayrixohlari ko'paydi. Qo'shni, yaqin va uzoq mamlakatlar bilan mutlaqo yangi, sog'lom siyosiy va iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yildi. Xalqaro hamkorlikning yangi yo'nalishlari, mexanizmlari joriy etilmoqda. Turkiy davlatlar tashkiloti ana shunday muloqot maydonlaridan biridir.

O'zbekiston TDTga a'zolik maqomini qabul qilish istagini bildirganda, albatta, bunday hamkorlik formati doirasidagi sherikchilikka talab ortib borayotgani, tashkilotdagi mavjud mexanizmlardan foydalanish mamlakat an'anaviy sheriklari bilan hamkorlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqishi va bu aloqalarning davomli rivoji turkiy tilli xalqlar umumiy manfaatlariga xizmat qilishi muqarrarligini inobatga olgan.

Bugungi kunga kelib, TDTga a'zo davlatlar qardoshlik va birodarlik ruhida hamda iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi asosida shakllantirilgan hamkorlikning yangi bosqichi sari dadil qadamlar bilan odimlamoqda. Mamlakatlar yetakchilarining siyosiy irodasi, ochiq, konstruktiv siyosatlari va muntazamlik kasb etayotgan oliy darajadagi uchrashuvlar



tufayli qardosh xalqlarning ko'p asrlik do'stlik rishtalari qayta tiklanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlari taraqqiyotida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

TDT Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekistonni birlashtirgan xalqaro tuzilma sifatida o'zining ilmiy-texnik va strategik salohiyatini umumiy rivojlanish uchun yo'naltirishda muhim platformaga aylanmoqda. 2025-yil 23-aprel kuni TDTning kosmik agentliklari va tegishli idoralari rahbarlarining Boku shahrida bo'lib o'tgan IV yig'ilishida a'zo davlatlar sun'iy yo'ldosh dasturini ishlab chiqish, ma'lumotlar almashinuvi, kadrlar tayyorlash va axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib olindi. Bu tashabbus turkiy dunyoda ilmiy-texnikaviy integratsiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi.

Kosmik diplomatiya davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning yangi ko'rinishi bo'lib, uning maqsadi kosmosdan tinch maqsadlarda foydalanish, axborot almashinuvi, sun'iy yo'ldosh texnologiyalarini rivojlantirish va insonparvar maqsadlardagi ilmiy tadqiqotlarni

muvoqilashtirishdan iborat. Zamonaviy geosiyosiy voqeikda kosmik sohadagi hamkorlik nafaqat texnologik taraqqiyot mezonini, balki davlatlararo ishonch va integratsiya darajasining indikatori sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kosmik diplomatiyaga turkiy dunyo uchun nafaqat ilmiy va texnologik imkoniyatlar sohasi, balki axborot xavfsizligi, mintaqaviy barqarorlik va “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish yo'lidagi muhim vosita sifatida qaralishi lozim. Bu yo'nalishdagi har bir qadam turkiy mamlakatlarning mustaqil ilmiy salohiyatini mustahkamlaydi, xalqaro nufuzini oshiradi va umumiy sivilizatsion maqsadlarga xizmat qiladi.

Turkiy davlatlar tashkilotining kosmik hamkorlikka oid tashabbuslari, avvalo, siyosiy mustaqillik va mintaqaviy hamjihatlik g'oyalarga tayanadi. Turkiy davlatlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy umumiylk ularning xalqaro siyosatda yagona pozitsiya shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Bu jihatdan kosmik diplomatiya siyosiy hamkorlikning yangi modelini, innovatsion integratsiyani namoyon etadi.

Kosmik sohadagi qo'shma dasturlar, sun'iy yo'ldoshlarni boshqarish va fazoviy

Dolzarb mavzu

Yer — umummilliy boylik, mamlakatimizda yer resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer munosabatlari sohasida qonuniylikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugun maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan yerga oid qonun buzilishi holatlarini aniqlash va tegishli choralar ko'rish turli shakllarda amalga oshiriladi.

Maxsus vakolatli organlar tomonidan tezkor hamkorlik yo'lga qo'yilmagani oqibatida ma'lumotlar yagona tizimda shakllantirilmay, soha to'liq nazorat qilinmay qolayotgandi. Bu esa, o'z navbatida, yer uchastkalaridan samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar talon-taroj qilinishining oldini olish uchun mazkur jarayonlarga axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, sohada nazoratni ta'minlashda inson omili aralashuvini kamaytirish zaruratini paydo qilayotir.

Yer nazorati sohasidagi mazkur jarayonni amalga oshirish va sohada kuzatilishi mumkin bo'lgan korupsion holatlarning oldini olish hamda Prezident huzurida joriy yil 29-iyulda bo'lib o'tgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida davlatimiz rahbarining joriy yil 18-sentabrdaqi “Yerga oid munosabatlarda korupsiyaviy omillarni bartaraf etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unga binoan, bu borada yangi tartib-taomillar belgilandi.

Qarorga asosan davlat yer nazorati Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi



vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

— Yer resurslarini samarali boshqarish har qanday davlatning qudrati va taraqqiyotining asosiy paydevori, — deydi xalqaro ekspert Richard Joys. — Aynan shu omil mamlakatlarda adolatli boshqaruvni ta'minlab, barqaror iqtisodiy rivojlanishga yo'l ochadi. Ammo korupsiya yer taqsimoti va uni boshqarish jarayoniga to'siq bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillarda bu borada muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, ular asosida yerlarni taqsimlash va samarali foydalanishda tub islohotlar boshlandi. Bu hujjatlar shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash bilan birga davlat idoralari, xususi sektor va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Fuqarolar endi yer taqsimoti va yerdan foydalanish jarayoni haqiqatan adolatli amalga oshirilayotganiga ishonch hosil qiladi.

Davlat idoralari esa qonun va tizimni aylanib o'tishga uringan shaxslarni o'z vaqtida aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa mamlakatda qonuniylk va adolatni ta'minlaydi.

— Yer qonunchiligiga qat'iy rioya qilishni ta'minlash maqsadida Kadastr agentligi tomonidan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olish, ulardan maqsadsiz foydalanish holatlarini barvaqt aniqlash va tegishli chora ko'rish vazifasini bajarishda “E-yer nazorat” avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi, — deydi Kadastr agentligi direktori o'rinbosari Mirsaid Mirmaqsudov. — Unga qadar barcha yer nazorati tadbirlari inson omili aralashuvi bilan qog'o'zda bajarilgan bo'lsa, yangi tizimda barcha holat avtomatlashtirilgan tartibda ro'yxatga olinadi. Har bir holat bo'yicha mantiqiy yakungacha bo'lgan jarayon nazorat qilinadi. Ushbu axborot tizimining afzalligi shundaki, sohada qog'ozbozlik, korupsiyaviy omillarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Qarorga muvofiq, endi “E-yer nazorat” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga yer munosabatlarga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritish va huquqbuzarlikka oid ishlarni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida ma'lumotlarni joylashtirish uchun Kadastr agentligi, Oliy sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, “O'zagroinspeksiya”, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish

va iqlim o'zgarishi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, Majburiy ijro byurosi va hududiy bo'linmalari hamda tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mas'uldir.

“E-yer nazorat” tizimi — davlat yer nazoratini yuritishning yagona elektron platformasi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab maxsus vakolatli davlat organlarining yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, jumladan, yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash, bino va inshootlar qurish holatlarini barvaqt aniqlash, ularga tegishli choralar ko'rishga oid vazifa va funksiyalari faqat ushbu tizim orqali amalga oshiriladi.

“O'zbekkosmos” agentligiga kosmik monitoringlar o'tkazish uchun byudjetdan har yili o'rtacha 10-15 milliard so'm ajratiladi. Biroq yagona tizim bo'lmagani sababli vakolatli organlar kosmik ma'lumotlardan samarali foydalana olmayapti.

Endi kosmik suratlarni qayta ishlash va tahlil qilish orqali aniqlangan yerga oid qonunbuzarlikehtimoliyuqoribo'lganholatlar bo'yicha ma'lumotlar “Raqamli hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali “E-yer nazorat” tizimiga yuboriladi. Bunda “O'zbekkosmos” agentligi

davlat kosmik monitoringini amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan loyihalar doirasida yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash, bunday yerlardan noqonuniy qurilmalar qurish holatlarini bir yilda ikki marotaba davlat byudjeti mablag'lari hisobidan aerokosmik monitoring orqali aniqlaydi.

Endi yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash, o'zboshimchalik bilan bino va inshootlarni qurish bilan bog'liq huquqbuzarlik darajasiga qarab uch toifaga bo'linadi.

Birinchisi, “qizil” toifa — yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash hamda o'zboshimchalik bilan bino va inshootlarni qurish ehtimoli yuqori hududlar. Ikkinchisi, “sariq” toifa — xuddi shunday ehtimol o'rtacha hududlar. Uchinchisi, “yashil” toifa — yuqorida qayd etilgan holatlar ehtimoli past hududlar.

“Qizil” toifadagi hududlarda maxsus dronlardan foydalangan holda har chorakda kamida bir marotaba, “sariq” toifadagi hududlarda maxsus samolyot yordamida har olti oyda kamida bir marotaba monitoring

Axborot xavfsizligi va masofaviy kuzatuv imkoniyatlari oshishi tabiiy ofatlar, migratsiya yoki ekologik inqirozlarga tezkor javob qaytarish imkonini beradi.


Shu bilan birga, bu hamkorlik turkiy mamlakatlarda yosh avlodning fan, texnika va innovatsion sohalarga qiziqishini kuchaytirishda muhim omil bo'lmoqda. TDT tomonidan yo'lga qo'yilgan “TurkSpace” ta'lim dasturlari va yosh olimlar almashinuvi tashabbuslari nafaqat kosmik sohadagi bilimlarni ommalashtirish, balki turkiy mamlakatlar yoshlarini zamonaviy ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etish, global innovatsion jarayonlardagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu dasturlar doirasida talabalar va yosh muhandislar uchun amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiya laboratoriyalari va sputnik texnologiyalari bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilmoqda. Shuningdek, turkiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari o'rtasidagi hamkorlik orqali qo'shma ilmiy loyihalar yo'lga qo'yilmoqda. Bunday sa'y-harakatlar natijasida TDT mamlakatlarida kosmik fan va texnologiyalar sohasida bilimli, innovatsion fikrlaydigan va ilmiy izlanishga moyil yangi avlod kadrlarini tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratiladi. Shu tariqa “TurkSpace” kabi ta'lim tashabbuslari nafaqat yoshlar salohiyatini rivojlantirish, balki turkiy dunyo ilmiy integratsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion rivojlanish nuqtayi nazaridan, kosmik diplomatiya yangi avlod iqtisodiyotiga olib boruvchi strategik yo'nalishdir. U ilmiy ishlammalar, startaplar, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili sohalarida hamkorlik uchun yangi maydon yaratadi.

Xulosa o'mida aytish mumkinki, kosmik diplomatiya tashqi siyosatning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlatlar o'rtasida kosmik texnologiyalar, ma'lumot almashuvi va ilmiy tadqiqotlar asosida hamkorlikni o'z ichiga oladi. Xalqaro miqyosda bu soha tinchlik, barqaror rivojlanish va ilmiy taraqqiyot maqsadlariga xizmat qiladi. Kosmik diplomatiya turkiy davlatlarning texnologik va siyosiy integratsiyasini chuqurlashtirishning yangi mexanizmi. Siyosiy jihatdan mazkur hamjihatlik va suverenitetni mustahkamlovchi diplomatik amaliyot bo'lsa, iqtisodiy jihatdan innovatsion iqtisodiyotga o'tish uchun platforma va ilmiy jihatdan bilimlar almashinuvi va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish vositasidir.

Turkiy davlatlar tashkiloti kosmik diplomatiyani o'zining strategik yo'nalishiga aylantirib, yoshlar, ilm-fan va texnologiyalar orqali mintaqaviy birlashuvni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ammo muvaffaqiyat uchun moliyaviy, texnik, huquqiy va siyosiy sohalardagi muammolarni yechish ushbu yo'nalish istiqbolini belgilab beradi. TDT doirasidagi kosmik hamkorlik mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash bilan birga turkiy davlatlarning xalqaro nufuzini ham oshiradi.



kuzatuvni o'tkazilishi, aniqlangan qonun buzilishi holatlari bartaraf etilgunga qadar maxsus vakolatli davlat organlarining asosiy kuch va vositalari safarbar etilishi nazarda tutilmoqda.

Yana bir muhim jihat. Yerga oid huquq-buzarliklarni aniqlash va yerlarni muhofaza qilishda jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi. Xususan, mahalla raislari hamda hokim yordamchilariga hududida boshlangan qurilish obyektining qonuniyligini aniqlash bo'yicha qurilish va kadastr organlariga “E-yer nazorat” tizimi orqali so'rov yuboriladi. Yerdan noqonuniy foydalanish holati bo'yicha profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha tuzilgan bayonnomani ushbu tizim orqali maxsus vakolatli organga yuborish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, “E-yer nazorat” tizimi Ichki ishlar vazirligining “E-ma'muriy ish”, Oliy sudning “Adolat”, Bosh prokuraturaning “E-material” axborot tizimlari, Majburiy ijro byurosining ijro ishi yurituvi yagona elektron bazasi hamda hokimliklarning ijro intizomi idoralararo elektron tizimi bilan integratsiya qilinadi.

— Hujjatga ko'ra, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, o'rmonlar, milliy bog'lar va tabiiy obyektlarning muhofaza hududlari hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tashkil etilgan bog'larni ushbu platforma orqali nazorat qilish imkoniyati yaratilmoqda, — deydi vazirlik nazorat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i Lazizbek Hasanov. — Bu platforma ish samaradorligini oshirishimizda yordam beradi. Amaliyotda hududlar nazorat qilinganda biror noqonuniy holat aniqlansa, natijasini olish, hujjatlarning qaysi holatdalgini bilish qator muammolar tug'dirar edi. Yangi tizim tufayli endi ish samaradorligi va natijadorligi oshadi. Natijada huquqbuzarlik aniqlangandan boshlab u bo'yicha chiqarilgan qaror ijoy etilishigacha bo'lgan jarayon yagona tizim orqali nazoratga olinadi.

Ushbu qaror yerga oid huquqbuzarlik-larning barvaqt oldini olish, korrup-siyaviy holatlarga chek qo'yish, idoralararo tezkor ma'lumotlar almashish, zaxira va sug'oriladigan yerlarni alohida muhofaza qilish, davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, sohada inson omilisiz shaffof tizim yaratish hamda onlayn nazorat joriy etishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Beshariq tumanining Rapqon mahallasida yashovchi Shahina Yigitaliyeva Hindistonda o‘tkazilgan para yengil atletika bo‘yicha jahon chempionatida qatnashdi. U nayza uloqtirish bahsida 41,97 metr natija bilan kuchli uchlikdan o‘rin oldi.

SHIJOAT VA MATONAT TIMSOLI

— Bunday nufuzli musobaqada munosib ishtirok etish, Vatan sha‘nini himoya qilish katta baxt, — deydi yosh sportchi. — Mukofotlash jarayonidagi his-hayajonimni so‘z bilan ifodalab bera olmayman. O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tarilib, davlatimiz madhiyasi yangradi. Albatta, bundan g‘ururlandim, ustozlarim, yaqinlarim ishonchini oqlaganim, mehnatim va izlanishlarim besamar ketmagani, teng-qurlarim kabi yurt koriga yaraydigan farzand bo‘layotganimdan sevindim. Chunki bunday sharaflı yo‘lni bosib o‘tish va g‘alabaga erishish oson kechgani yo‘q. Otam qo‘lmdan yetaklab, Dang‘ara tumanidagi sport maktabiga olib borgan ilk kunda murabbiylar “Chalqancha usulda akrobatik mashqlarni bajara olasammi?” deb so‘radi. Ikkilanmay bu jarayonlarni ko‘rsatib berganman. O‘shanda 5-sinfda o‘qirdim. Shu sabab bo‘lib mashg‘ulotlarga kirishib ketganman. Hali oldimizda qator xalqaro musobaqlar kutib turibdi. Ayni kunda kelgusi yili bo‘ladigan Osiyo o‘yinlari, yoshlar o‘rtasidagi jahon



Nayza uloqtirish bir qaraganda oddiy ko‘rinishi mumkin. Ammo mustaqil jismoniy tayyorgarliksiz, ishonch va aniq maqsadlarsiz natijaga erishish qiyin. Aytishlaricha, sportchi nayza uloqtirayotganda shamol tezligini his qilgan holda kerakli amallarni bajara olishi muhim ekan.

championati bahslariga hozirlik ko‘ryap-miz. Maqsadim — 2028-yilda AQSHda o‘tkaziladigan paralimpiya o‘yinlarida munosib ishtirok etish. Buning uchun zarur sharoit va imkoniyat yetarli. Tabiatan harakatchan Shahina boshlang‘ich sinfda o‘qib yurgan chog‘idayoq sport murabbiylari e‘tiboriga tushdi. Yaqinlari mehriini his qilib yashadi, birovdan kam bo‘lmadi, harakat qildi, intildi, izlandi. Uning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan murabbiylar qizni nayza uloqtirish mashg‘ulotlariga jalb etdi. Yosh sportchi bu yo‘nalishda ham o‘ziga xos yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bir necha bor viloyat, respublika musobaqlari g‘olibi bo‘ldi, mahoratini oshirdi, mamlakat terma jamoasi tarkibiga kiritildi. 2021-yil yosh sportchi faoliyatida omadli yil bo‘ldi. U Tunisda o‘tkazilgan paralimpiya o‘yinlarida qatnashib, g‘oliblar safidan joy oldi. 2023-yilda Xitoyning Xanchjou shahri mezbonlik qilgan

— Bir qo‘li nogiron bo‘lib dunyoga kelganida qizimning keyingi taqdirini o‘ylab tushkunlikka tushgandim, — deydi xonadon bekasi Dilnoza Turdaliyeva. — Shukr, yaqinlarim yelkadosh bo‘ldi. Bunda ham bir hikmat bor deb ko‘nglimni ko‘tarib, qo‘llab-quvvatlashdi. Qizim bugun nafaqat oilamiz, balki mahallamiz faxriga aylandi. Musobaqalardan shoda-shoda medal bilan kelgan kunlari xonadonimizda bayram bo‘lib ketadi. “Oltin avlod” safida farzandim ham borligi ko‘nglimga g‘urur, iftixor bag‘ishlaydi, albatta.

Har qanday g‘alaba ortida mashaqqatli mehnat, intilish va ishtiyok mujassam. Maqsad to‘g‘ri tanlansa, yuksak natijalar qo‘lga kiritilaveradi. Shunday ekan, ulkan marralar sari intilayotgan mahoratlı sportchining g‘alabali yurishlari hali davom etadi.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Milliy davlatchiligimiz tarixidan

2025-yil
25-oktabr, 219-son



Yangi tahrirdagi
Konstitutsiyamiz muqaddimasida
“davlatchiligimiz rivojining uch
ming yildan ziyod tarixiy tajribasi,
shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga
beqiyos hissa qo‘shgan buyuk
ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va
ma‘naviy merosi” alohida ta‘kidlanadi.

BUYUK TEMUR SALTANATI

O‘zbek milliy davlatchilik tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovruq qozongan ulug‘ zotlar ko‘p. Ular vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o‘rin tutadi. Ana shunday zotlardan biri, o‘z xalqining azaliy orzusini ro‘yobga chiqarib, elu yurtni bosqinchilar zulmidan ozod etgan xaloskor, buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Amir Temurdir.

Amir Temur o‘z davrida turli madaniyat va dinga mansub xalqlarni birlashtirib, buyuk temuriylar saltanatiga asos solgan. Saltanatda ilm-fan, madaniyat va san‘at ravnaq topgan. Bu esa jahon olimlari hamda siyosatshunoslari tomonidan yuqori baholangan. Uning markazlashgan davlatni vujudga keltirish yo‘lidagi tajribasi va erishgan yutuqlarini bugun ham dunyo e‘tirof etmoqda.

Amir Temur ibn Amir Muhammad Tarag‘ay milodiy 1336-yil 9-aprel kuni Kesh (hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi Xo‘jailg‘or qishlog‘ida tug‘ildi. Uning otasi Muhammad Tarag‘ay Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega barlos qavmi oqsoqollaridan biri bo‘lgan. U 1360-yilda vafot etgan va Kesh shahrida dafn etilgan. Amir Temurning onasi Tekina xotun, (Takina begim, Takina Mohbegim) naslu nasab jihatdan aslzodalardan bo‘lgan.

Amir Muhammad Tarag‘ay o‘g‘li Temurning yoshligidan ilm olishiga e‘tibor bergan. Bolaligidan og‘ir-bosiq, zehni o‘tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastlab madrasada saboq oldi, savodini chiqardi, ustoz-

O‘tmishda yirik davlat arboblarning hammasi ham jang qilgan, lekin ularning ko‘pchiligi bu janglar natijasida mamlakatni xarobaga aylantirgan. Amir Temur esa janglar tufayli vayron bo‘lgan shahar va qishloqlarni obod qildi, bog‘lar barpo etdi, fan va madaniyatni rivojlantirdi”.

Tarixiy ma‘lumotlar guvohlik berishicha, Amir Temur o‘ttiz besh yillik (1370-1405) hukmdorligi davrida dunyoda eng yirik — Markaziy Osiyodan to O‘rtayer dengizigacha, Kichik Osiyo va Shimoliy Kavkazning katta qismini o‘z ichiga olgan markazlashgan davlat tuzdi. U umrining aksariyat qismini harbiy yurishlarda o‘tkazdi. Amir Temurning bu harbiy yurishlari tarixda “uch yillik” (1386-1388), “besh yillik” (1392-1396) va “yetti yillik” (1399-1404) harbiy yurishlar sifatida nom qoldirgan. U mag‘lubiyat nimaligini bilmagan g‘olib sarkarda sifatida biror xalqqa qarshi emas, balki Movarounnahrni siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy jihatdan birlashtirish, uni ozod va obod etish, el-yurt xavfsizligini ta‘minlash uchun harbiy yurishlar qilgan.



Buyuk Temur tomonidan Samarqandda Ko‘ksaroy, Bibixonim masjidi va madrasasi kabi ko‘plab imoratlar bunyod qilindi. Samarqand atrofida Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog‘i Behisht va Bog‘i Nav kabi bog‘lar barpo etildi.

lar nazoratida kamon dastasini ushlash, o‘q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikor (ov) uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini o‘rgandi.

Temurbek madrasaning boshlang‘ich davrini muvaffaqiyatli tamomlagandan so‘ng tahsilni oliy madrasalarda davom ettirdi. Ilm olish jarayonida u tarix, islom ta‘limoti va huquqshunosligi, handasa, riyoziyot, jug‘rofiya hamda falakiyot ilmlarini ham puxta o‘rganib, ma‘naviy qarashlarini yuksaltirdi. Shu bois, Temurbekning yoshlikda olgan ta‘lim va tarbiyasi uning keyingi faoliyatida juda katta ijobiy rol o‘ynagan.

Amir Temur o‘z davrida qudratli va mustahkam markazlashgan davlatga asos soldi. Zero, davlat qudratli bo‘lmasa, betakror ma‘naviy meros ham, muhtasham obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo‘lmas edi. E‘tiborga molik jihatı, Amir Temur davlat ishlarini qonun-qoidalariga tayangan holda boshqarib, turli tabaqaga mansub qatlamlar haq-huquqlarini qonunan himoya qilish tizimini yo‘lga qo‘ydi. Bu haqda “Temur tuzuklari”da ham batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.


Masalan, “Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To‘ra va tuzukka tayanib, saltanatda o‘z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amiralar, vazirlar, sipoh, raiyat, har biri o‘z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo‘lib, undan ortig‘iga da‘vog‘arlik qila olmadi”, deydi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, qonun ustuvorligi mamlakatning farovon hayotini ta‘minlash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois, Sohıbqironning nafaqat davlat boshqaruvi va harbiy san‘ati, balki bunyodkorlik va obodonchilik faoliyati ham ko‘p asrlar davomida Sharq G‘arbda o‘rnak va andoza bo‘lgan. Bu haqda pokistonlik jamoat arbobi, jumalist Xanif Ramey bunday fikr bildirgan: “Davlat tuzish tartibini Amir Temurdan o‘rganishimiz kerak.



Angliya qiroli Genrix IV saroylariga elchilar yuborgan, ular bilan maktub almashgan. Bu xususda aniq tarixiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular bizgacha yetib kelgan. Masalan, Sohıbqironning Fransiya qiroli Karl VI ga yo‘llagan xatida “Siz o‘z savdoglarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni iliq qarshi olib, izzat-ikrom ko‘rsatamiz. Biz ham o‘z savdoglarimizni sizning yurttingizga yo‘llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko‘rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo‘l qo‘ymang. Sizga bundan bo‘lak talabim yo‘q. Zero, dunyo savdo ahli ila obod bo‘lajak” mazmundagi fikrlar qayd etilgani Amir Temur davlati tashqi siyosatining ko‘lami kengligini, xalqaro nufuzi baland ekanini anglatadi.

Amir Temur hukmronligi davrida qadimiy Turonda nafaqat ilm-fan, madaniyat va san‘at, balki shaharozlik, me‘morlik sohaları ham ravnaq topgan. Ayniqsa, bunyodkorlik hamda obodonchilik ishlariga alohida e‘tibor qaratilib, jamiyat a‘zolari hayotini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga harakat qilingan. Amir Temurning bunyodkorlik va obodonchilik faoliyati uning ma‘naviy-ma‘rifiy



qarashlarini ko‘rsatadigan muhim omillardan biridir. Buning yorqin dalili sifatida quyidagi misollarni keltirish mumkin.

Buyuk Temur tomonidan Samarqandda Ko‘ksaroy, Bibixonim masjidi va madra-



sasi kabi ko‘plab imoratlar bunyod qilindi. Samarqand atrofida Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog‘i Behisht va Bog‘i Nav kabi bog‘lar barpo etildi. Shuningdek, Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoda ko‘priklar qurildi. Toshkent atrofiga kanallar o‘tkazildi. Buxoro, Shahrisabz, Farg‘ona, Turkiston (Yassa) va boshqa shaharlarda karvonsaroylar, hammomlar, maqbaralar, madrasalar, shaharlaro karvon yo‘llarida rabotlar, sardobalar qurilib, savdo rivojiga sharoit yaratildi.

Albatta, bu tadbirlarning barchasi xalq ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilash, ma‘naviy-madaniy dunyoqarashini kengaytirish, e‘tiqodi va davlatga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, qadimda hukmdorlar katta g‘alabasini o‘z ota-onasi, valiahd shahzodalarning tug‘ilishi yoki boshqa voqea sharafiga bag‘ishlab, esdalik sifatida katta qasrlar, masjido madrasalar hamda xonaqohlar tiklagan. Ushbu an‘anaga Sharqda aynan Amir Temur asos solgan. Shu o‘rinda Shahrisabzdagi Oqsaroy qasrining bunyod etilishiga qisqacha to‘xtalsak. Uning qurilishi 1380-yil bahorida mashhur me‘mor Muhammad Yusuf Tabriziy yetakchiligida boshlangan. Qasming dastlabki g‘ishtini Mir Said Barakaning fatvosi bilan Amir Temurning o‘zi qo‘ygan.

Oqsaroy 20 yil mobaynida qurilgan. Saroy ikkita yirik ravoqdan iborat bo‘lib, 38 metrdan so‘ng qubba shaklida birlashtirilgan. Ikki arkning oraliq‘i 22,5 metrni tashkil etgan. O‘sha davr solnomalarida yozilishicha, Oqsaroy dunyo podsholari tomonidan barpo etilgan eng go‘zal va mahobatli imoratlardan biri bo‘lgan. Oqsaroyning koshinkor va parchinkor pesttoqining guldor naqshlari orasiga “Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, qurgan imoratlarimizga boq”, degan xitobnoma bitilgan.

Mazkur saroy haqida to‘liq ma‘lumot Rui Gonsales de Klavixo tomonidan berilgan bo‘lib, u Shahrisabzga keladi va Oqsaroyini dunyo madaniyatining eng buyuk san‘at asarlaridan biri sifatida baholaydi. U o‘z kundaliklarida Oqsaroyning go‘zalligi va mahobatidan hayratlanib: “...Zero, butun bino zarhal va lojuvard bilan qoplangan bo‘lib, u yerda saroyning shuncha bo‘lma va oromgohlarini ko‘rsatdilariki, ular haqida juda uzoq so‘zlash mumkin. Saroy ziynatları oltin va boshqa ranglardan hayratomuz ishlangan edi. Hatto mohir ustalari bilan jahonga mashhur bo‘lgan Parijda ham bu ish juda go‘zal hisoblangan bo‘lar edi”, deb alohida ta‘kidlaydi.

Afsuski, hozir ushbu ulkan tarixiy obidaning xarobalarigina saqlanib qolgan. Shunga qaramay, saroyning bugungi kundagi tarixiy, ma‘naviy hamda madaniy ahamiyati saqlanib, O‘zbekiston yoshlariga ushbu ulug‘ zamonga nazar tashlash, undan kuch va ilhom olishga imkoniyat bermoqda.

Amir Temur va temuriylar davrida barpo etilgan me‘moriy obida va tarixiy inshootlar shunday joylashtirilganki, ularning geometrik shakli va geografik joylashuvi jihatidan shaharning go‘zalligi hamda yaxlitligi ta‘minlangan. Zamonaviy til bilan ifodalaganda, bu jahon standartlariga javob bera oladigan “siti” tushunchalarining mukammal boshlanishi deyish mumkin.

Amir Temur ma‘naviy-ma‘rifiy, bunyodkorlik faoliyati bilan O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq xalqlari madaniyatini yuksaltirib, jamiyat ma‘naviy hayotiga ijobiy ta‘sirini ko‘rsata olgan. Amir Temur davrida Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent va boshqa hududlarda bunyod etilgan nodir me‘moriy obidalar nafaqat o‘sha davr, balki bugungi kunda ham O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan chet ellik sayyohlarning yuksak e‘tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Ushbu madaniy yodgorliklar zamonaviy O‘zbekistonning qadimgi tarix bilan bog‘laydigan “oltin ko‘prigi” deyilsa, xato bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur zamonida madaniyat, ilmu fan, me‘morchilik, tasviriy san‘at, musiqa, she‘riyat beqiyos darajada rivoj topgan. Shu bois, o‘zbek milliy davlatchiligi tarixida Amir Temur davri Ikkinchi Renessansga tamal toshi qo‘yilgan davr o‘laroq e‘tirof etiladi. Demak, bugungi kunda, ya‘ni yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish va mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish jarayonida jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan ulkan davlat asoschisi Amir Temur davrini, uning hayoti va faoliyatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Komiljon SULTONOV, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi

